



## *Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi*

# 2019 yilning yanvar-aprel oylarida **QURILISH ISHLARI**

### Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi

**-438,2 mlrd.so'm**

Yirik pudrat tashkilotlari ulushi

**2,5 %**

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi

**-85,1 %**

Norasmiy sektor

ulushi

**-12,4 %**

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Sirdaryo viloyatida jami **438,2 mlrd.so'm** **qurilish ishlari** bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **107,2 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 11,0 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,0%ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari 372,8 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,5 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 54,4 mlrd.so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 142,9 %ni tashkil etdi.

### **Yirik qurilish tashkilotlari**

**hajmi - 11,0 mlrd.so'm**

**o'sish sur'ati - 133,0 %**

### **Kichik korxona va mikrofirmalar**

**hajmi - 372,8 mlrd.so'm**


**o'sish sur'ati - 102,5 %**

### **Norasmiy sektor**

**hajmi - 54,4 mlrd.so'm**

**o'sish sur'ati - 142,9 %**

## Yanvar-aprel oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,3 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 4,9 % punktga kamaydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 19,5 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,9 % punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 12,2 % to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,0 % ga ko'paydi.



## **Qurilish ishlaring faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**



- ▣ Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Fuqarolik qurilish obektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- ▣ Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




**Shahar va tumanlar kesimida  
qurilish ishlari tarkibi  
(mlrd.so‘m)**

	<b>Jami qurilish ishlari</b>	<b>shu jumladan, qurilish ishlari tarkibi bo'yicha</b>		
		yirik pudrat tashkilotlari	kichik korxona va mikrofirmalar	norasmiy sektor
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>438,2</b>	<b>11,0</b>	<b>372,8</b>	<b>54,4</b>
Guliston sh.	155,5	3,3	129,8	22,4
Shirin sh.	19,8	-	17,7	2,1
Yangiyer sh.	37,2	-	33,9	3,3
Boyovut	36,9	0,2	33,3	3,4
Guliston	17,9	-	14,3	3,6
Mirzaobod	36,6	2,1	31,6	2,9
Oqoltin	32,7	1,5	29,3	1,9
Sardoba	10,3	-	5,8	4,5
Sayhunobod	13,9	-	10,1	3,8
Sirdaryo	52,9	-	48,0	4,9
Xovos	24,5	3,9	19,0	1,6


## Hududlarda qurilish ishlarining o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)

### Sirdaryo viloyati



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahriga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlarining o'sish sur'ati 106,6 % ni tashkil etdi. Yangiyer shahrida qurilish ishlarining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,6 % ni tashkil etdi. Sirdaryo tumanida qurilish ishlarining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ni tashkil etdi. Boyovut tumanida qurilish ishlarining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,9 % ni tashkil etdi. Mirzaobod tumanida qurilish ishlarining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,8 % ni tashkil etdi. Oqoltin tumanida qurilish ishlarining qurilish ishlarining o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ni tashkil etdi.

## **Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari**



▣ Yirik qurilish tashkilotlari ▣ Kichik korxona va mikrofirmalar ▣ Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 85,1% tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,5 %ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan jami qurilish ishlaridagi ulushi 2,5 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,0 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 12,4 % tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 142,9 %ni tashkil etdi.




**Qurilish ishlarining  
mulkchilik shakllari bo`yicha tarkibi  
(jamiga nisbatan % da )**

**2018 yil**



**2019 yil**



█ Davlat mulki

█ Nodavlatmulkchilik shakli

Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 31,3 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 7,1 %ni tashkil qildi ya`ni 2018 yil yanvar-apreliga nisbatan 2,5 % punktga ko`paydi.




Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 406,9 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 92,9 %ni (2018 yil yanvar-apreliga nisbatan 2,5 % punktga kamayish) tashkil qildi.

Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o'sish sur'ati Sayhuno bod tumanida kuzatilgan bo`lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,3 %ni tashkil etdi.



**Shahar va tumanlar  
kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan %da)**



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilagan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Guliston shahriga 35,5 %ga to‘g‘ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sirdaryo tumaniga 12,1 %, Yangiyer shahri 8,5 % ga, Boyovut va Mirzaobod tumanlariga 8,4 % dan to‘g‘ri keldi.



**Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi  
Investitsiya va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni:**      **(67) 225-02-37**  
**(71) 230-86-27**